



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### ALEKSANDR FAYNBERG SHE‘RIYATIDA TABIAT TASVIRI ORQALI INSON KECHINMALARINING OCHIB BERILISHI

**Samandarova Intizor Ikrom qizi**

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*3-ingliz fakulteti 1-bosqich talabasi*

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada o‘zbek va rus adabiyotiga munosib hissa qo‘shgan serqirra ijodkor, shoir, tarjimon, ssenarist Aleksandr Faynberg va uning she‘riyatida inson his-tuyg‘ulari, kechinmalarining tabiat hodisalariga bog‘lab yoritilganini tahlil qilamiz va yangicha tasviriy topilmalarni kashf qilishga harakat qilamiz.*

**Kalit so‘zlar:** *tabiat tasviri, kechinmalar, serqirra ijodkor, she‘riyat, rus va o‘zbek shoiri, his-tuyg‘ular*

Adabiyotda o‘z muxlislariga ega sermahsul va serqirra ijodkor, “qalbi o‘zbek shoir” nomi bilan mashhur Aleksandr Faynberg so‘zni shunchaki qo‘llamaydi, balki uni his qilib, o‘quvchining qalbiga yetkazib berishga urinadi. Haqiqiy shoirga o‘z yurti havosi ilhom bag‘ishlaydi deyishadi. Shubhasiz, bu shoirga ham tuproq, suv, havo butun borliq ilhom bag‘ishlagan va ijodkorning tabiatga bo‘lgan e‘tibori va muhabbatini uning she‘rlarida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Tubi yo‘q dengizdan boq,  
Yulduzlar yorug‘ chaqnar.  
Chetlari qirra yaproq,  
She‘rim asra jon qadar...

Ushbu baytda lirik qahramon uchun she‘r shunchaki matn emas, balki jon bilan teng ekanligini, ijodning bir kunlik emas, asrlar davomida avlodlarga yetib boradigan xazina ekanligini anglash mumkin. Shoir o‘z ichki kechinmalarini, tuyg‘ularini aytib bo‘lmaydi deb hisoblab ularni tabiat manzaralari orqali ifodalab beradi. “Tubi yo‘q dengiz” va “yulduzlar” inson ruhining kengligi va cheksizligini ko‘rsatadi. “Yulduzlar yorug‘ chaqnar”- kelajakka bo‘lgan umid va ruhiy yuksalishni, “Chetlari qirra yaproq” esa hayotning noaniqligini ifodalaydi. “She‘rim asra jon qadar” misrasi orqali esa shoir ijod va so‘zning abadiy ekanligini ochib beradi. She‘r abadiylik mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, chuqur hissiyot va obrazlar bilan boyitilgan.

Ayvonimga chiqdim, oqshom beqiyos,  
Navbahor shamoli - navqiron tuyg‘u.  
Qarigan sochimga, yuzimga emas,  
Yuragimga, yuragimga uriladi u.  
Yaxshi-yomon kunda hamisha, har on,  
Yerda ham suvda ham yugurar tinmas.  
Shamol yelaverar doim navqiron,





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Shamollarning aslo qarisi bo‘lmas.

Ushbu she‘rda ham tabiat va insonning ichki ruhiy holati uyg‘unlashtirib tasvirlanadi. Oqshomning go‘zalligi va navbahor shamoli yurakdagi his-tuyg‘ular bilan bog‘langan. Shuningdek, she‘rda vaqtning o‘tishi, qarish va ichki yosh qalb tasviri shunday go‘zal ifodalangan: tashqi ko‘rinish qarisa ham, ruh, qalb va his-tuyg‘ular doimo yosh bo‘lib qolaveradi. “Yuragimga uriladi u” misrasi go‘yo she‘rning mazmunini ochib bergandek bo‘ladi. Ya‘ni, oqargan sochlar, ajin bosgan yuzlar bilan emas, balki ijodkor shamolni, u esganda beradigan tuyg‘uni qalbi bilan his qiladi. Shamol va tabiat bilan birgalikda ichki his-tuyg‘ularni ifodalash vositasi sifatida metafora va tashbeh san‘atlari ishlatilgan. “Yuragimga, yuragimga uriladi u” va “shamollarning aslo qarisi bo‘lmas” kabi takrorlar esa hissiyotning kuchini oshirgan va she‘rning go‘zalligini ta‘minlab bergan. “Shamollarning aslo qarisi bo‘lmas” jumlasini orqali shoir umrining o‘tganini, qariganini bilib, hali-hamon shunday esayotgan, hamon navqiron, abadiy yosh bo‘lgan tabiatga, shamolga zimdan ham havas, ham hasad qilgandek bo‘ladi. Umuman olganda, she‘rda tabiat orqali yoshlik - navqironlik tarannum qilinadi va doimiy yangilanishga urg‘u beriladi.

Suzayapman, muhabbat olis

Gulxanlardan o‘rlyaydi tutun.

Sendan bo‘sa oladi yulduz,

Bu qirg‘oqdan ketaman bugun.

Qirg‘oqqa tashlayman langarcho‘p,

Izmiga soladi moviy suv.

To‘lqinlari yugurik, to‘p – to‘p

Daryo tubi – adabiy g‘uluv.

She‘r ketish, ajralish va muhabbat bilan bog‘liq ichki kurash haqida. Lirik qahramon o‘zini suvda suzayotgandek tasvirlaydi — bu holat noaniqlik, oqim bo‘ylab ketish, taqdirga tan berib, unga ergashish ramzi hisoblanadi. “Suzayapman, muhabbat olis” - bunda qahramonning aniq yo‘li yo‘q, oqim bo‘ylab ketmoqda, muhabbat esa masofa. “Sendan bo‘sa oladi yulduz” - muhabbat shu qadar yuksakki, hatto unga yulduz yaqin. Bu idealizatsiya hisoblanib, yetib bo‘lmaslik hissini ko‘rsatadi. “Bu qirg‘oqdan ketaman bugun” esa qat‘iy qaror, orqaga yo‘l yo‘qligi va ketishdir.

“Qirg‘oqqa tashlayman langarcho‘p,

Izmiga soladi moviy suv”.

Bu yerda langar — erkni tutib turgan narsa, mas‘uliyat va o‘tmish ma‘nolarini anglatmoqda. Uni tashlash esa ozodlikka urinishdir. “Moviy suv” esa taqdir, u insonni o‘zi xohlamagan holda izmiga solib qo‘yadi. “To‘lqinlari yugurik” — bu hayot tezligi va tinimsiz harakat. “Daryo tubi — adabiy g‘uluv” misrasida juda nozik metafora qo‘llangan: tashqarida shovqin bo‘lishiga qaramasdan ichkarida jimlik va ma‘noga to‘la chuqurlik bor. Bu ijodkor qalbining ichki olami — so‘zga, she‘rga aylangan sukuti. Xulosa qilib aytganda, she‘r muhabbatdan ketish emas, balki uning ichida yo‘qolish haqida. Unda suv, qirg‘oq,



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



yulduz, tutun kabi obrazlar orqali insonning ichki holati — sog‘inch, taslim bo‘lish va baribir davom etish istagi chiroyli qilib ifodalangan.

O‘zbek she‘riyatining eng ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri Aleksandr Faynberg she‘rlarini o‘qir ekanmiz, uning tabiat tasvirlanmagan asarlarini topish mushkul. Qisqa qilib aytganda, Faynbergning lirik qahramoni tarixiy-ijtimoiy silsilalar asrida o‘zining insoniy mohiyatini to‘la saqlab qolgan, yer kurrasida sodir bo‘layotgan noxush voqea va hodisalardan iztirob chekuvchi insondir. Tabiatsevar shoirning har bir so‘zni, satrni chuqur his qilib ularni bevosita tabiat hodisalariga bog‘lab o‘quvchiga yetkazib berganligining guvohi bo‘ldik.

### FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aleksandr\\_Faynberg#cite\\_ref-2](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg#cite_ref-2)
2. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasiga>
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>

